

## YALPI HUDUDIY MAHSULOT




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar–iyunida Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 20 200,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 5,6 %ga o'sdi.

YaHM deflyator indeksi 2020- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 115,7 %ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YalMning shakllanishida Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,3 %ga yetdi.




### Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da
		2020- yil	2021- yil	
	<b>I. YaHM</b>	<b>16 538,4</b>	<b>20 200,5</b>	<b>105,6</b>
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	16 028,1	19 515,2	105,6
	Mahsulotlarga sof soliqlar	510,3	685,3	106,1
	<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>16 028,1</b>	<b>19 515,2</b>	<b>105,6</b>
	<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>5 099,3</b>	<b>6 606,2</b>	<b>103,8</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>4 426,2</b>	<b>5 050,0</b>	<b>103,3</b>
	sanoat	3 274,1	3 681,0	101,1

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da
		2020- yil	2021- yil	
	qurilish	1 152,1	1 369,0	109,5
	<b>Xizmatlar</b>	<b>6 502,6</b>	<b>7 859,0</b>	<b>108,6</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 305,5	1 605,0	110,1
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	931,0	1 272,5	123,2
	boshqa xizmat tarmoqlari	4 266,1	4 981,5	104,9

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 5 265,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,7 %ga yuqoridir.

**Yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari**





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,6 %ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,4 %ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 33,9 %ni, sanoat tarmog'i 18,9 %ni, qurilish 7,0 %ni va xizmatlar sohasi 40,2 %ni tashkil qildi.




### Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan %da)

		2020- yil	2021- yil
	<b>I. YaHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,9	96,6
	Mahsulotlarga sof soliqlar	3,1	3,4
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>31,8</b>	<b>33,9</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>27,6</b>	<b>25,9</b>
	sanoat	20,4	18,9
	qurilish	7,2	7,0
	<b>Xizmatlar</b>	<b>40,6</b>	<b>40,2</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8,1	8,2
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,8	6,5
	boshqa xizmat tarmoqlari	26,7	25,5




Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
YaHM tarkibi (jami ga nisbatan %da)

2020- yil




2021- yil



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,8 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 33,9 %), sanoatda – 101,1 % (18,9 %), qurilishda – 109,5 % (7,0 %), xizmatlar sohasida – 108,6 %ni (40,2 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,1 % (8,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 123,2 % (6,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,9 %dan (25,5 %) iborat bo'ldi.



### Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



YaHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,2 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 1,6 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,2 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida salbiy – 0,6 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,7 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 0,4 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 3,4 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 0,4 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaHM 0,2 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida salbiy – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.




### 2021- yilning yanvar-iyun oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-iyunida YaHM deflyatori indeksi 2020- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 115,7 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida – 124,8 % va xizmat ko'rsatish sohasida – 111,3 % qayd etildi.



**Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



**Yanvar-iyun oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi**  
(jamiga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 69,2 %ni tashkil qildi (2020- yilning yanvar-iyunida – 67,6 %).

YaHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan izohlanadi.